



KOKS ORALIG'I HAQIDA TUSHUNCHA

Abdumuhtorov Zahriddin

Ilmiy rahbar: Gadayev Asliddin

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Ko'ks oralig'i (Mediastinum)-odam va boshqa sut emizuvchilarda ko'krak bo'shlig'ining o'rta qismi. Oldindan to'sh suyagi, orqadan umurtqa pog'ovasi, ikki yon tomondan o'ng va chap plevra xaltalari, pastdan diafragma bilan chegaralangan. Ko'ks oralig'ini shartli ravishda ikkiga: old va orqa qismlarga bo'linadi. Uning oldingi qismida yurak, kekirdak, ayrisimon bez va boshqa; orqa qismida esa aorta, qizilungach, katta venalar va h.k. bor. Ko'ks oralig'i yuqoridan bo'yin qismiga qo'shilgan, pastdan qorin bo'shlig'idan ajralgan. Ko'ks oralig'i kasalliklari uning ma'lum bir qismigagiva xos bo'lib, bu diagnostik ahamiyatga ega. Ko'ks oralig'i a'zolarining ochiq yoki yopiq shikastlanishlari jarroxlik yo'li bilan davolanadi. Bu sohada kista, o'smalar, yallig'lanishlar va boshqa kuzatiladi

KIRISH

Ko'ks oralig'i shartli ravishda yuqori va pastki qismlarga bo'linadi, uning sathi IV ko'krak umurtqasidan o'tadi. Traxeya yuqori ko'ks oralig'ini shartli ravishda oldingi va orqa ko'ks oralig'iga bo'ladi, yurak xaltasi esa pastki va oldingi, o'rta va orqa ko'ks oralig'iga bo'ladi. Ko'ks oralig'i topografik-anatomik bog'liq a'zolar va to'qimalarning yig'indisi hisoblanadi. Yuqori ko'ks oralig'ida traxeya, qizilo'ngach, ayrisimon bez, aorta ravog'i, elka-bosh venalari, ko'krak limfatik yo'li joylashgan bo'ladi.

Pastki ko'ks oralig'ining oldingi va o'rta qismlarida yurak va perikard joylashgan bo'lib, o'rta qismining yuqori uchdan birida esa traxeya bifurkatsiyasi, o'pka arteriyasi, aortaning yuqoriga ko'taruvchi qismi joylashadi. Nihoyat, pastki orqa oralig'ida aortaning pastga tushuvchi qismi, qizilo'ngach, ko'krak limfa yo'li, simpatik va parasimpatik nervlar o'tadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Rentgen va boshqa nurlarning diagnostikada qo'llanilishi ko'krak qafasi a'zolarini funksional va morfologik jihatdan o'rganishda, kasalliklarini o'z vaqtida aniqlashda zamonaviy pulmonologiyaning rivojlanishiga katta xissa qo'shdi. Hozir



klinikada nafas a`zolarini rentgenologik va nur qo`llanadigan boshqa usullar bilan tekshirish katta ahamiyatga ega, chunki ular ko`p hollarda, tashhisni aniqlashda hal qiluvchi rol o`ynaydi. Kasallikning umumiy rentgen diagnostikasi turli intensivlikka ega bo`lgan soya yoki yorug`likni o`pka va ko`ks oralig`ida aniqlashga asoslanib, bir patologik jarayonni ikkinchisidan farq qilishga imkon beradi. Ko`krak kafasi a`zolari anatomik tuzilishiga ko`ra suyak negizi va yumshoq to`qimalardan tashkil toptan. A`zolar zichlanishi va nurlarni o`tkazishiga qarab turlicha soya yoki yorishish beradi. Shuning uchun ko`krak qafasi a`zolarini rentgen nurlari bilan tekshirilganda o`pkaning yoritilgan fonida suyak skeleti, yurak va katta tomirlar, diafragma yaxshi ko`rinadi. O`pka yumshoq to`qimadan tuzilgani va ichida havo borligi sababli unda rentgen nurlari singimasdan oson o`tadi va hosil bo`lgan yorug` fonda turli zichlanishga ega tuzilmalar soya beradi va ular atrofidagi baquvvat to`qimalardan ajralib turadi. Ko`krak qafasining suyak skeleti birmuncha zich bo`lgani uchun undan rentgen nurlari kamroq o`tadi, shu sababdan rentgenologik usullar bilan tekshirganda ular turli intensivlikka ega bo`lgan soya holida ko`rinadi, bu suyakning tuzilishiga bog`liq. Shunday qilib, muskullar va teri bilan qoplangan ko`krak qafasining suyak skeleti, havosi bor o`pka bilan o`ralgan yurak va yirik tomirlar tabiiy kontrast hosil qiladi, bu ularni turli rentgenologik usullar bilan tekshirish va o`rganishga imkon beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

KO`KRAK QAFASI A`ZOLARINI NURLAR BILAN TEKSHIRISH USULLARI Ko`krak qafasi a`zolarini zamonaviy tekshirish usullarini quyidagi guruhlariga bo`lish maqsadga muvofiqdir: 1. Rentgenologik tekshirish usullari: a) asosiy (rentgenoskopiya, rentgenografiya, flyuorografiya, elektrorentgenografiya - ko`krak qafasi skeleti uchun); b) qo`shimcha (tomografiya, zonografiya, kompyuter tomografiya va b.q.); v) kontrast modda yuborib tekshirish (bronxografiya, angiopulmonografiya, mediastinografiya va b.q.); Radionuklid tekshirish usullari (radiometriya, radiografiya, skanerlash, ssintigrafiya), KT (emission) va b.q. Zamonaviy tasvir beruvchi usullar (ultratovush, termografiya, MP-tomografiya va b.q.). Rentgenfunktsional tekshirish usullari. **ASOSIY RENTGENOLOGIK TEKSHIRISH USULLARI** 1. Rentgenoskopiya va rentgenografiya juda keng tarqalgan klassik tekshirish usullariga kiradi. Rentgenoskopiya bemor shtativ oldida, ekran orqasida, unga qarab turadi. Rentgen apparatining elektr sxemasidagi katta kuchga ega tokni ulaganda ko`krak qafasidagi a`zolar ekranda ko`rinadi. Tekshirish vaqtida ko`krak qafasining shakli, qovurg`alarning turishi, qovurg`aaro masofa holati va ko`ks oralig`i a`zolariga e`tibor beriladi. Ekranda tasvirning



kontrastligi hamda keskinligini oshirish uchun diafragma qisqartirilib, chegaralangan maydoncha kichik nur tutami bilan yoritiladi va o'pkaning hamma qismlari birin-ketin, o'ng tomonini chan tomoniga solishtirib, sinchiklab o'rganiladi. Rentgenoskopiya vaqtida bemorni turli proektsiyalarda (old, yon, qiya va b.q.), turli holatda (turg'azib, yotqizib, yonboshlatib) yoki ko'p proektsiyalarda tekshirish mumkin. Rentgenografiya ko'krak qafasini rentgenologik tekshirishda muhim ahamiyatga ega komponent hisoblanadi, u plynkada o'pka, suyak va boshqa a'zolaridagi o'zgarishlarni ifodalash xususiyatiga ega bo'lib, ularni sinchiklab o'rganish uchun sharoit yaratadi. Rentgenoskopiyaga nisbatan uning hal qiluvchi xususiyati ko'proq. Rentgenogramma- ob'ektiv yuridik hujjat bo'lib, patologik jarayonni dinamik o'rganish imkonini beradi. Suratlar talabga binoan old (to'g'ri), yon va qiya holatlarda 1,5-2 m masofada, 0,05-0,1 sekundda chuqur nafas olib, uni saqlab turgan holda olinadi. Ba'zan qo'shimcha suratlar ham olishga to'g'ri keladi. Flyuorografiya - o'lchami 70x70 yoki 90x90 mm bo'lgan flyuorogrammalarda ko'krak qafasi a'zolari tasvirini olish usuli. Kontingyenti katta korxonalar (idoralar, fabrikalar, institutlar va boshqa muassasalar) xizmatchilari, ishchilari, talabalar, bemorlar (katta kasalxonalarda) va uyushgan odamlar o'pkasini tekshirishda qo'llaniladi.

XULOSA

Elektrorentgenografiya - ko'krak qafasi a'zolarining rentgenologik tasvirini maxsus elektr rentgen apparatlari yordamida oddiy oq qog'ozga olish usuli. Umumiy surat olish, ishlov berish vaqti 2-3 minut. Usulning afzallik tomoni: tezkorligi, arzonligi, tasvirning yuqori kontrastligi va fotolaboratoriya yo'qligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1. Nurova, Z. A., Toshpo'Latov, T. L. A., Doniyorova, G. E., Bahodirjonov, T. L., & Qilichev, J. F. (2022). ORGANIZMNING ANTIGENLIK, BIOLOGIK, ALLERGIK OMILLARI VA ULARNING TA'SIR DARAJALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(4), 654-657.